XALQ DEPUTATLARI URGUT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-20-143-7-105-K/25 Urgut tumani

2026-yilda Urgut tuman bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer qa’ridan foydalanganlik uchun bazaviy soliq va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yer solig‘i stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445, 452-moddalari hamda xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi VII-24-191-7-0-K/25-sonli qarori, tuman Soliq inspeksiyasining 2025-yil 19-dekabridagi P-17221 -sonli xatiga muvofiq “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, navbatdagi yigirmanchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1108-sonli Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445, 452-moddalari hamda xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi VII-24-191-7-0-K/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Tuman Soliq inspeksiyasi hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasihamda tuman hokimligining 2026-yil uchun belgilangan mahalliy budjet prognozidan kelib chiqib, tuman bo‘yicha 2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer qa’ridan foydalanganlik uchunsoliq va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yer solig‘i stavkalarining mutlaq

miqdorlariga nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsiyentlarni qoʻllash boʻyicha takliflari inobatga olinsin.

3.2026-yil uchun noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar 1-ilovaga hamda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.Tumanhokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i D.Ergashev, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (B.Salomov), tuman soliq inspeksiyasi (B.Hotamov) bilan birgalikda mazkur qaror o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

5.Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalaridayoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6.Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Urgut tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (O.Azimurodov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (U.Kamolov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **SAYIDKULOV DILMUROD BASTAMOVICH**

Xalq deputatlari Urgut tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-143-7-105-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar*

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktosh dan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Urgut tumani	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,30

Xalq deputatlari Urgut tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-20-143-7-105-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar

(qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Urgut tumani	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20